

## INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA KASBIY LEKSIKANI O'RGANISHGA ASOSLANGAN MASHQLARNI TANLASH VA TUZISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

*Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna*  
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*  
*Tayanch doktranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola chet tilida o'qitishda leksik va grammatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tahlil qiladi. Ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganishda o'quvchilarni xatolardan xalos etish va yangi leksik birliklarni taqdim etishda umumlashtirishning ahamiyati ko'rsatilgan. H.Soyunazarovning metodik qarashlariga ko'ra, ko'p ma'noli so'zlar alohida leksik birlik sifatida o'rganilishi kerak. Maqolada, shuningdek, leksik minimum tanlash bo'yicha turli tadqiqotchilarning fikrlari keltirilgan va bu jarayonda psixologik, didaktik va semantik tamoyillarning o'zni ta'kidlangan. Chet tili o'qitishda mashqlar tizimi, shu jumladan statik va dinamik mashqlar, til materialini o'zlashtirishda sezgi va analizatorlarning ishtiroki muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** leksik kompetensiya, ko'p ma'noli so'zlar, o'quv metodikasi, leksik minimum, retseptiv va reproduktiv nutq, mashqlar tizimi, didaktik tamoyillar, statik va dinamik mashqlar, chet tili o'qitish.

Nutqni egallash xususiyatiga ko'ra, aniqrog'i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi. Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirish ko'p ma'noli so'zlarni taqdimot chog'ida umumlashtirib berish ayrim ma'nolarni ajratib o'rgatish ishidan o'qituvchini xalos etadi. "Ko'p ma'noli so'zlarni umumlashtirib o'rgatish usulini" o'zbek tadqiqotchilaridan H.Soyunazarov tadqiq etgan. Ushbu metodik g'oyaga binoan fe'l shakllarini o'rganishda ikki va undan ortiq misol keltirilgandan so'ng yangi o'rganilayotgan o'xshash shakllar oldingilari asosidagi qoidalarga tayanib, mustaqil tarzda o'rganiladi. Retseptiv leksikani o'rgatish mazmunida til birligi mavqeini birinchi so'z egallaydi. Reprodutiv nutqda esa noto'g'ri fe'lning har bir zamon shakli alohida til birligi darajasida qo'llanadi. Ko'p ma'noli so'zni taqdim etishda ham umumlashtirib o'rgatish tavsiya etiladi. H.Soyunazarovning metodik qarashlariga ko'ra ko'p ma'noli so'zning barcha ma'nolari alohida leksik birlik bo'lib, har bir yetakchi ma'no esa leksikani o'rgatish mazmuniga kiritiladi [1]. Ingliz tili o'qitishda leksik minimum tanlash tamoyillari bo'yicha tadqiqotchilarning fikrlari turlichadir. Tadqiqotchilardan V.A.Buxbinder va M.Choriyevlar quyidagi tamoyillar asosida leksik minimumni tanlashni taklif qilganlar: 1. Leksik birliklarni ingliz tili o'qitishda mavzularga asosan tanlash; 2. Yangi so'zlarni o'zlashtirishning psixologik jihatlarini e'tiborga olish; 3. Ingliz tili ta'limining psixologik va didaktik qonuniyatlariga rioya qilish; 4. Talabalarning potentsial va real lug'at boyligini bir-biri bilan bog'liq holda shakllantirish; 5. Ingliz tili leksik minimumni rasional cheklash tamoyili [5]. Tadqiqotchilardan N.D.Galskova va N.I.Gezlar leksikani tanlashda 6ta tamoyilni asos qilib olganlar. Ular: 1. Muvofiqlashtirish tamoyili; 2. Stilistik jihatdan chegaralanmaganligi; 3. Ingliz tilidagi so'zlar ma'nosini ochish; 4. So'zni taqdim etishda leksik birliklarni fahmlash va mustaqil ravishda ma'nosini anglash; 5. So'z ma'nolarini farqlash; 6. Nutqda faol qo'llanadigan so'zlarni tanlash; 6. Ingliz tilida nutqda so'zlarni ko'p ishlatilishiga ko'ra tanlash [2]. Tadqiqotchilardan G.Rahmonov va M.Karimovalar leksik minimum tanlashda 1. Mavzular bo'yicha; 2. Ko'p so'zlarni qo'llash va keng tarqalganlik darajasiga ko'ra; 3. Til interferensiyasiga binoan xatolarni oldindan olishga ko'ra; 4. Semantik (ma'noviy) jihatdan tanlash; 5. Muvofiqlik tamoyiliga ko'ra; 6. Stilistik jihatdan chegaralanmaganlik; 7. So'z yasalishiga ko'ra tamoyillarni asos qilib olganlar [4; 5]. Shuningdek, tadqiqotchilardan F.R.Qodirova ham leksik birliklarni tanlashda quyidagi tamoyillarni asos qilib olgan: 1. Nutqda so'zning amaliy qimmatini hisobga olinishi; 2. So'zning og'zaki nutqda, grafik matndagi tez-tez qo'llanilishi; 3. So'zlardan foydalanish imkoniyatlariga qarab [3]. Tadqiqotchi

F.R.Qodirova “Nutqda yangi soʻzlarni faol qoʻllash koʻp jihatdan talabalarning ular maʼnosini qanchalik toʻgʻri tushunishlariga bogʻliqdir” deb, taʼkidlab oʻtgan. Buning uchun mashgʻulotlarni shunday tarzda tashkil etish kerakki, talabalar yangi leksik birliklarni idrok etib, sekin asta faol nutqqa oʻtishsin [3]. Chet til oʻrganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayondir deyilsa, mubolagʻa yoki xato boʻlmaydi. Bu — mashqning dinamika (harakat) tarafi. Uning statika (holat) jihati — darslikda oʻquv materiali tarzida tashkil etilganligidadir. Statikadagi mashq deganda, chet til darsligida muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib koʻrsatilgan, ikki qismdan iborat, dars tarkibini tashkil etadigan oʻquv-metodik kategoriya tushuniladi. Mashqning qismlari metodik adabiyotlarda “mashq talabi (sarlavhasi)” va „mashq materiali” deb yuritiladi. Mashq materiali darslikda yozilgan (harf, soʻz, jumla, grafik matn) yoki oʻquvchi nutqining mahsuli (tovush, soʻz, jumla, ogʻzaki matn) boʻlishi mumkin.

Dinamikadagi mashq — chet tilda oʻquvchi bajaradigan, harf yozish yoki tovushni talaffuz etishdan tortib, to matnni idrok etib tushunish yoki oʻz fikrini bemalol bayon etishgacha boʻlgan oʻquv amalidir. Mashqlarning statikadagi koʻrinishi darslik muallifining ijod mahsulidir, dinamikada esa nutq koʻnikma va malakalari hosil qilish yoʻlidagi amaliy xatti-harakatlar va urinishlardir. „Mashq“ tushunchasining qisqacha taʼrif-tavsifidan soʻng „mashqlar sistemasi“ terminini koʻrib chiqamiz. Mazkur mavzu chet til metodistlari orasida toʻxtovsiz munozaralarga sabab boʻlib keladi. Prof. Igor Vladimirovich Raxmanov barcha mashqlarni til va nutq mashqlari nomlari bilan ajratib yuritgan. Ayrim metodistlar asarlarida ikkala termin orasida „nutqqacha boʻlgan mashqlar“ nomini ham qoʻllashadi. Prof. Vulf Abramovich Buxbinder informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida tadqiqot olib boigan. Sodda qilib, ularni bilim, koʻnikma va malaka berish mashqlari, deyish joizdir. I. V. Raxmanov tasnifi shveytsariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur til va nutq dixotomiyasi taʼlimoti taʼsiri natijasi, deb qaralmogʻi maʼqul. V. A. Buxbinder mashqlar nazariyasi psixolingvistika maʼlumotlariga asoslangan boʻlib, maktabda chet til oʻqitish voqeligini aniqroq aks ettiradi. Oʻzbekiston chet til metodistlarining 1970—80-yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida (J. Jalolov, T. Sattorov, A. Soynazarov va b.) chet til mashqlar sistemasini oʻzbekcha terminlar bilan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar turlariga boʻlinishi aniqlangan.[6] Shakllantiruvchi mashq til materialini oʻzlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qoʻllanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va oʻzga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, yaʼni bilim olish, koʻnikmani egallash va malakani oʻstirishga moʻljallangan mashqlar, deb qaraladi. Mashqlar sistemasi kichik sistemalar inikosidir. Ular nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, oʻqish va yozuv) mashqlari hamda til materiallari (leksika, grammatika, talaffuz) mashqlari nomlari bilan ataladi. Nutq jarayonida til materialini egallashda sezgilar ishini aks ettiruvchi retseptiv leksik, retseptiv grammatik va reproduktiv leksik hamda reproduktiv grammatik mashqlar ham boʻladi. Chet tilda ogʻzaki va yozma mashqlar bajariladi. Ogʻzaki mashq dialog va monolog mashqlariga hamda ogʻzaki bajariladigan leksik, grammatik va talaffuz mashqlariga boʻlinadi. Yozma mashqlar fikmi yozuvda ifoda etish (yozma nutq)ni va yozish (yozuv texnikasi)ni oʻrgatishga bagʻirlanadi. Oʻqish mashqlari grafik matnni oʻqib axborot olish va oʻqish leksikasini oʻzlashtirishga moʻljallanadi. Bayon etilganlarga yana shuni ilova qilish mumkinki, mashq va matn, mashq va sheʼr, mashq va harf/tovush, mashq va rasm kabi soʻz birlikmalari gʻayrimetodik tushunchalar sirasiga kiradi, chunki iboralaridagi ikkinchi soʻzlar mashqning materiali, yaʼni mashqning obyekti yoki mahsulidir. Ona tili va ikkinchi tilda bunday taʼbirlar erkin qoʻllanaverishi mumkin. Bunga sabab, ularni oʻqitishda qoidalar muntazam tarzda singdiriladi, grammatik tahlil qilinadi, sheʼrlar ifodali oʻqiladi[1] Xulosa qilib aytganda, maqolada chet tilida oʻqitish jarayonida leksik va grammatik kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali metodik yondashuvlar koʻrib chiqildi. Ayniqsa, koʻp maʼnoli soʻzlarning oʻrganilishida umumlashtirish usulining ahamiyati taʼkidlangan. H.Soyazarovning metodik gʻoyasi, koʻp maʼnoli soʻzlarning har bir maʼnosini alohida leksik birlik sifatida oʻrganish, oʻquvchilarga nutq faoliyatini rivojlantirishda katta yordam beradi. Shuningdek, leksik minimumni tanlashda psixologik, didaktik va semantik tamoyillarning ahamiyati yuksakdir. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari

surilgan tamoyillar, leksik birliklarning o'rganilishida to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mashqlar tizimi, shu jumladan statik va dinamik mashqlar, til materiallarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Chet tili o'qitishda mashqlarni shunday tashkil etish zarurki, bu jarayon talabalarning tilni samarali va to'g'ri o'rganishiga olib kelsin. Bularning barchasi ingliz tilini o'rganishda metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jalolov. J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – B.434.
2. Butayev Sh.T. Akademik lisey o'quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvistik lug'atlardan foydalanish metodikasi (ingliz tili misolida). Diss. ... ped. fan. bo'yicha falsafa. dokt. – Toshkent., 2018. - 137 b.;
3. Kadirova F.R. Lingvodidakticheskiye osnovi obucheniya detey doshkolnogo vozrasta vtoromu yaziku (na materiale russkogo i uzbekskogo yazikov): Dis...doktora ped.nauk. – Tashkent.: 2006, 360s.
4. Nazarova S. Sovershenstvovaniye inoyazichnoy leksicheskoy kompetensii studentov priobucheniya kitayskomu yaziku. Dis...dokt.filosofii po ped. nauk.– Tashkent., 2018. – 153 s.;
5. Choriyev M. Diss. Ingliz tili leksikasiga o'rgatishning lingvodidaktik va injener-lingvistik asoslari: Diss. ...ped. fanl. nom. - Qarshi. 1999. - B. 36-37. - 198 b.
6. Qodirova Z. O'zbek auditoriyasiga ingliz tili leksikasini o'rgatish muammolari. Xorijiy tillarni o'qitishning buguni va ertasi. – Toshkent., 2016. –466 b.
7. Аноркулов, С. (2021). Хронотоп как отличительная черта романного универсума ФМ Достоевского. Просвещение и познание, (5 (5)), 16-23.
8. Аноркулов, С. ПРОСВЕЩЕНИЕ И ПОЗНАНИЕ. ПРОСВЕЩЕНИЕ И ПОЗНАНИЕ Учредители: Прудник Ксения Евгеньевна, (5), 16-23.